

# CareRemover



ASOSIY TOZALAGICH



## LOBA-tizimida umumiy tozalash




Laklangan pol qoplamalari uchun umumiy tozalagich. Ketmaydigan dog'larni va eski parvarishlar vositalari qatlamlarini ketkizadi. Doimiy umumiy tozalash muvofiqlashtirilgan parvarishlash bilan laklangan parket pollarning xizmat qilish muddatini ko'p marotaba oshiradi.

- Eski parvarishlash vositalari qatlamlarini ketkizadi.
- Eng qattiq dog'larni ham ketkazadi
- Har xil laklangan yuzalarda universal foydalanish mumkin
- Materiallarni tejaydigan tarkib va kimyoviy jihatdan ta'sirchan emas

## Qo'lanilish doirasi:

Laklangan yog'och pollari, po'kak qoplamalar, linolyum-, PVX va rezina qoplamalar kabi suv o'tkazmaydigan pl qoplamalaridan eski parvarishlovchi qavatlarini olib tashlash uchun mo'ljallangan.

## Mahsulot haqidagi ma'lumotlar

MAHSULOT RAQAMI			
10065	1l	12	480
	10l	-	60

## Ingrediyentlar

неионогенные поверхностно-активные вещества, анионные поверхностно-активные вещества <5%, Ароматы (DIMETHYLBENZYL CARBONYL ACETATE), Консервант (POTASSIUM SORBATE)

## Saqlash va tashish

36 oy davomida saqlash mumkin. +5 dan +25°C gacha bo'lgan haroratda saqlash va tashish mumkin. Sovuqdan asrang.

## GISCODE

GG60

## Texnik ko'rsatmalar

- Mahsulot yaxshilab chayqatilsin.
- Umumiy va mahsulotga taaluqli mehnatni muhofaza qilishga doir qonun buzilmasin. Mahsulotning sog'lik uchun kimyoviy ta'siriga taaluqli ko'rsatmalar korxonada mavjud va ularni [www.wingis-online.de](http://www.wingis-online.de) web-sahifasidan ham olish mumkin.

### SUYULTIRGICH

Suv.

### SURTISH USKUNASI / MATERIAL SARFI

LOBA purkagich yoki polyuvgich ifloslanish darajasiga qarab 10-20ml/m<sup>2</sup> = 50-100m<sup>2</sup>/l (foydalanishga tayyor aralashmada har 100m<sup>2</sup> uchun 1-2l to'g'ri keladi). Bir diskli pol yuvish mashinasi va LOBASAND SpecialPad yashil yoki avtomat so'rg'ichli pol yuvish mashinasi maxsus qistirmasi bilan.

### QO'LLASH:

#### Tayyorgarlik:

Umumiy tozalashda 1:4 dan 1:6 nisbatgacha suv bilan aralashiring va LOBA purkagich yoki polyuvgich yordamida yuzani namlang.

#### O'rta va katta yuzalarni umumiy tozalash (Avtomat tozalash mashinasi):

Qisqa ta'sir qilish vaqtidan so'ng, mos abrazivli qistirmalari bo'lgan avtomat so'rg'ichli pol yuvish mashinasi bilan ishlov bering va bevosita changyutgich bilan ifloslanish eritmasini torting.

#### Kichik va o'rta yuzalarni umumiy tozalash:

Qisqa ta'sir qilish vaqtidan so'ng yuzani ostiga o'rnatilgan LOBASAND SpecialPad yashil rangli bir diskli pol yuvish mashinasi bilan ishlov bering. Ifloslangan eritmani zudlik bilan suv changyutgich bilan tozalang yoki sochiq shuningdek polyuvgich bilan artib oling.

#### Kichikyuzalarda (qo'lda) umumiy tozalash:

Tozalash eritmasini joylashtiring va qisqa ta'sir qilish vaqtidan so'ng, o'rta qattqlikdagi cho'tkasi bo'lgan supurgi yordamida qo'lda ishlov bering. Ifloslangan eritmani zudlik bilan suv changyutgich bilan tozalang yoki sochiq shuningdek polyuvgich bilan artib oling.

#### Dastlabki tozalash:

Har bir umumiy tozalashdan keyin mos LOBA parvarishlash mahsuloti bilan yangidan dastlabki tozalash talab etiladi. Parvarishlash mahsulotini faqat to'liq quritilgandan keyin qo'llang.

#### Intensiv tozalash

LOBA Cleaner bilan ketkazib bo'lmaydigan qattiq dog'lar, shuningdek oyoq izlari, ko'pgina hollarda suv bilan 1:10 nisbatda suyultirilgan CareRemover bilan tozalash orqali ketkazish mumkin. Ushbu eritma yordamida pol tegishli qoplami mos keladigan polyuvgich bilan nam tozalanadi. So'ngra bevosita tiniq suv bilan nam holda arting, ta'sirini neytrallashtiring. Og'ir dog'larga sochiq, cho'tka yoki LOBASAND SpecialPad yashil va bir diskli pol yuvish mashinasi bilan ishlov bering (abraziv qistirmalar, yuvish mochalkasi va boshqalar yuzani tiralishiga olib kelishi mumkin. Butun yuzaga qo'llashdan oldin, vositaning bir joydagi muayyan turdagi dog'larga mos kelishini tekshirish kerak. Lok ichiga kirib ketgan yoki unga aralashgan dog'larni butunlay ketkazib bo'lmaydi.

### MUHIM KO'RSATMALAR

Ko'p miqdorda parvarishlash vosita qatlamlari to'plangan holda, tegishli jarayonni bir necha marta takrorlash kerak bo'lishi mumkin. So'ngra yuzani tiniq suv bilan yuvib tashlang va neytrallashtiring. Bularning barini mashina bilan ham bajarish mumkin.

## Umumiy ko'rsatmalar

**Ishchi uskunalarni tozalash:** Ishchi uskunalarni darhol suv bilan yuvib tashlang.

Biz bugungacha to'plagan tajribamiz asosida mijozlarimizga ushbu ma'lumotlar, ko'rsatmalar va tavsiyalarni beramiz va ish jarayonlari Spezial sharoitga mo'ljallangan. Qo'llash imkoniyati va sharoitlarning xilma-xilligi sababli mijozga yangi tajriba o'tkazish uchun ruxsat etilmaydi. Mijozlar LOBA mahsulotlarini qo'llash bo'yicha maslahat olishlari mumkin. Mahsulot ishlab chiqaruvchi va bugungi kundagi Spezialarga rioya qiling. Biz faqat umumiy shartnoma kelishuviga asosan kafolat beramiz va javobgarlikni o'z zimmamizga olamiz. Agar yangi texnik ma'umotlar paydo bo'lsa eskisi o'z kuchini yo'qotadi.

bilan belgilangan so'zlar va belgilar, Germaniya hududida ro'yxatdan o'tgan va himoya qilinadigan savdo belgilarining huquqlarini bildiradi.